

**QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGI VA  
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

**BALTANIYAZOV ADILBAY SARSENBAYEVICH**

**G'O'ZAPOYA MAYDALAGICHNI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING  
ASOSIY ISHCHI ORGANLARINING PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01-Qishloq xo'jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo'jaligi va melioratsiya  
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Gulbahor - 2024**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of  
philosophy (PhD) on technical sciences**

**Baltaniyazov Adilbay Sarsenbayevich**

G‘o‘zapoya maydalagichni takomillashtirish va uning asosiy ishchi organlarining parametrlarini asoslash ..... 3

**Балтаниязов Адилбай Сарсенбаевич**

Совершенствование измельчителя стеблей хлопчатника и обоснование параметров его основных рабочих органов ..... 19

**Baltaniyazov Adilbay Sarsenbayevich**

Improving the cotton stalk chopper and substantiating the parameters of its main working parts ..... 35

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works ..... 38

**QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGI VA  
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

**BALTANIYAZOV ADILBAY SARSENBAYEVICH**

**G'O'ZAPOYA MAYDALAGICHNI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING  
ASOSIY ISHCHI ORGANLARINING PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01-Qishloq xo'jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo'jaligi va melioratsiya  
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Gulbahor-2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/T418 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida [www.qxmiti.uz](http://www.qxmiti.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Auezov Ong'arbay Pirleshovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xudayarov Berdirasul Mirzayevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Norchaev Davron Rustamovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Etakchi tashkilot:**

**Qishloq xo'jaligi texnikasi va texnologiyalarini  
sertifikatlash va sinash markazi**

Dissertatsiya himoyasi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/13.05.2020.T.112.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 110801, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99870) 601-07-04, faks: (+99870) 601-07-04, e-mail: [qabulxona@uzmei.uz](mailto:qabulxona@uzmei.uz)).

Dissertatsiya bilan Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 110801, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99870)601-07-04, faks.: (+99870) 601-07-04, e-mail: [qabulxona@uzmei.uz](mailto:qabulxona@uzmei.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**A.To'xtaqo'ziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi o'rinbosari, t.f.d.professor.

**A.A.Ibragimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, t.f.d.,k.i.x.

**A.To'xtaqo'ziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda g'ozga eng qimmatli qishloq xo'jaligi ekinlaridan biridir. Uning mahsulotlari xalq xo'jaligining deyarli barcha tarmoqlarida qo'llaniladi. Agar bugungi kunda dunyoda 900 mln gektar maydonda turli qishloq xo'jaligi ekinlari ekilayotganligi, jumladan, 32-33 mln gektar maydonda paxta etishtirilayotganini inobatga oladigan bo'lsak, paxta xomashyosini etishtirish bilan bir qatorda dalalarni g'ozapoyalardan tozalash uchun yuqori sifatli energiya tejovchi texnologiya va texnikalar ishlab chiqish muhim masala hisoblanadi. Shu jihatdan g'ozapoyalarni maydalashda resurstejamkorlikni oshiradigan texnika vositalarini ishlab chiqarishga e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda g'ozapoyalardan organik o'g'it sifatida foydalanish maqsadida g'ozapoyalarni maydalashning resurstejamkor texnika va texnologiyalarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda pushtadagi g'ozapoyalarni qirqib maydalab sochib ketadigan mashinalarni yaratish, texnologik jarayonini asoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan g'ozapoyalarni qirqib maydalaydigan ixcham va qulay ishchi qismli mashinalarni yaratish zarur hisoblanadi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "... qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga etkazish, eksportbop mahsulotlar etishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish va issiqxonalarni 2 baravar ko'paytirib, eksport salohiyatini yana 1 mlrd AQSh dollarga oshirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, aholi tomonidan tomorqalardan samarali foydalanilish uchun sharoitlar yaratish" vazifalari belgilab berilgan<sup>1</sup>. Shuningdek, davlatimiz Prezidentining 2019 yil 31 iyuldagi PQ-4410-son «Qishloq xo'jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida» Qarorida ko'rsatilganidek, «...qishloq xo'jaligi mashinasozligi tarmog'ini yanada rivojlantirish, qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqarish jarayonini to'liq yo'lga qo'yish, agrar sektorni hududlarning tabiiy iqlim va tuproq sharoitlariga mos keladigan zamonaviy va arzon qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlash maqsadida..., ishlab chiqarilayotgan mavjud texnika turlarini optimallashtirish, yangi turdagi qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, respublikada ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi texnikalari uchun yangi milliy «brend»ni yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda<sup>2</sup>. Bu maqsadga erishish uchun, albatta, kam mehnat sarflab agrotexnik tadbirlar sifatli bajarilishini ta'minlaydigan yangi texnologiya va texnikalarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, bu vazifalarni bajarishda dalalarni shudgor qilishga tayyorlash jarayonida

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni.

<sup>2</sup><http://www.nrcs.usda.gov>,<https://icac.org>

foydalaniladigan texnik vositalarni texnik va texnologik jihatdan yangilash muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning II. "Energetika, energiya-resurs tejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** G'ozapoyalarni maydalab, o'g'it sifatida foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari R.A.Kepner, R.Bayner, E.L.Berger (AQSh), X.Chen, P.Wang (Xitoy), M.N.Shammedov (Turkmaniston), V.Kumar, S.Kumar (Indiya) va boshqa chet el olimlari tomonidan olib borilgan.

Ushbu yo'nalishda respublikamizda A.M.Kaplanov, M.N.Sablikov, B.M.Imenjanov, Yu.Qodirov, A.E.Vyalovskiy, F.A.Skryabin, E.Ya.Yasheva, G.I.Yarovenko, D.A.Sabinin, A.G.Shalimov, M.S.G'aniev, N.A.Qulametov, B.Dehqonov, F.M.Mamatov, J.Alijonov, B.M.Xudoyorov, B.Sorimsakov va boshqa olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Olib borilgan ushbu tadqiqotlar asosida g'ozapoyani maydalashga mo'ljallangan mashinalar yaratilib, ishlab chiqarishda foydalanilmoqda. Ammo bu mashinalarning konstruksiyasi murakkab va metal sarfining yuqoriligi energiya sarfini oshiradi, shuningdek g'ozapoya maydalanishining to'liqligi va sifati past. G'ozapoyalarni qirqish va maydalash uchun metal sarfi past bo'lgan ixcham mashinalar yaratish bo'yicha bugungi kungacha ilmiy-tadqiqot ishlari etarli darajada olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'likligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish kafedrasining ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** G'ozapoya maydalagichning konstruksiyasini takomillashtirish va uning ishchi qismlari parametrlarini asoslash orqali g'ozapoyalarning maydalanish darajasini va sifatini oshirish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- g'ozapoyalarni maydalash texnologiyasi va texnika vositalariga oid ilgari bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish;

- paxta hosili yig'im-terimi yakunida g'ozapoyalarning fizik-mexanik xossalarni o'rganish;

- eksperimental g'ozapoya maydalagich konstruksiyasini ishlab chiqish va tajriba nusxasini yaratish;

- ishchi qismlarning g'ozapoyalar bilan o'zaro ta'sirlashishining matematik modellarini ishlab chiqish;

- kesuvchi pichoqlarga ega ishchi qismning ratsional parametrlari va g'ozapoya maydalagichning ish rejimlarini asoslash;

- g'ozapoya maydalagichning ishchi qismlarining parametrlarini maqbullashtirish, agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlarini aniqlash;

- ratsional parametrlarga ega g'ozapoya maydalagichni xo'jalik sinovlaridan o'tkazish va uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash.

**Tadqiqot ob'ektini** g'ozapoyalarining asosiy fizik-mexanik xossalari, poya maydalagich va uning ishchi qismlari, poya maydalagichning texnologik jarayoni tashkil qiladi.

**Tadqiqot predmetini** kesuvchi pichoqlarga ega ishchi qismlarning g'ozapoyalar bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonini, shuningdek, g'ozapoya maydalagichning sifat ko'rsatkichlarining, uning parametrlari va agregatning harakat tezligiga bog'liq ravishda o'zgarishi qonunlarini tavsiflovchi matematik modellar va analitik bog'liqliklar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy mexanikaning asosiy qonunlari, eksperimentlarni matematik rejalashtirish hamda tenzometriya usullari va Tst 63.06-2001 «ИСТ. Машины для уборки хлопка-сырца и стеблей хлопчатника. Программа и методы испытаний», O'zDSt 3193:2017 “Qishloq xo'jaligi texnikasini sinash. Mashinalarni energetik baholash usuli” va РД Уз 63.03-98. “Испытания сельскохозяйственной техники. Методы расчета экономической эффективности испытываемой сельскохозяйственной техники” kabi me'yoriy hujjatlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

g'ozapoya maydalagich ishchi qismining konstruktsiyasi g'ozapoyalarni qirqib maydalashini hisobga olgan holda takomillashtirilgan va uning texnologik ish jarayoni asoslangan;

g'ozapoya maydalagich ishchi qismi parametrlari va rejimlarining o'zgarish chegaralari uning g'ozapoyalar bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonlarini ifodalaydigan matematik modellar asosida aniqlangan;

g'ozapoya maydalagich kesuvchi pichoqlarining parametrlari g'ozapoyalarning agrotexnik talablar darajasida maydalanishini hisobga olgan holda aniqlangan;

g'ozapoya maydalagichning ish sifatini ta'minlaydigan ishchi qismlarining maqbul qiymatlari, ularning energetik va agrotexnik ish kursatkichlarini adekvat ifodalovchi regressiya tenglamalarini birgalikda echish orqali aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

g'ozapoyalarning maydalanish sifatini va to'liqligini oshiradigan maqbul parametrlarga ega g'ozapoya maydalagich ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan maqbul parametrlarga ega takomillashtirilgan g'ozapoya maydalagich qo'llanilganda mehnat va boshqa xarajatlarning kamayishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotning zamonaviy usullar va o'lchov vositalaridan foydalanib o'tkazilganligi, g'ozapoyalarni maydalashga mo'ljallangan kesuvchi pichoqlarga ega ishchi qism parametrlarini nazariy asoslangan holda olib borilganligi, shu bilan birga nazariy mexanika va oliy

matematika qoidalari va usullariga amal qilinganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalarining adekvatligi, dala sinovlarining ijobiy natijalari va ishlab chiqilgan g'ozapoya maydalagichning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kam energiya sarflagan holda ish sifatini ta'minlaydigan g'ozapoya maydalagichning parametrlari asoslanganligi, shuningdek, ishlab chiqilgan matematik modellar va analitik bog'liqliklarni shunga o'xshash boshqa texnika vositalarining parametrlarini asoslashda qo'llash imkoniyatlari mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan g'ozapoya maydalagichni ishlatish natijasida g'ozapoyalarni maydalash texnologik jarayonining sifatli bajarilishi, ish unumining oshishi, yonilg'i sarfining, moddiy va mehnat xarajatlarining kamayishi bilan izohlanadi

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** G'ozapoya maydalagichni takomillashtirish va parametrlarini asoslashga oid tadqiqotlar natijalari bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk markazining dalalarni shudgorga tayyorlash jarayonida g'ozapoyalarning maydalanish darajasi va to'liqligini oshiradigan «G'ozapoya maydalagich» ixtirosiga patent olingan (IAP №06060 – 2019 y.). Natijada g'ozapoya maydalagichning konstruksiyasini ishlab chiqish imkoniyati yaratilgan;

takomillashtirilgan ishchi organga ega g'ozapoya maydalagich Qoraqalpog'iston Respublikasining Kegayli, Shumanay va Xo'jayli tumanlarining fermer xo'jaliklarida joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 5 iyuldagi №01/01-2455 son ma'lumotnomasi). Natijada g'ozapoyalarning maydalanish darajasi 96,6 % ni, ya'ni uzunligi 4-6 sm oralig'ida bo'lgan g'ozapoyalar 31,6 %, 6-8 sm oralig'ida bo'lgan g'ozapoyalar 44,3 % va 8-10 sm oralig'ida bo'lgan g'ozapoyalar 20,7 % ni tashkil etgan;

taklif etilgan g'ozapoya maydalagichning sanoat nusxalarini ishlab chiqish va tayyorlash uchun loyiha-konstruktorlik hujjatlari (dastlabki talablar va texnik topshiriq) "BMKB –Agromash" AJ da loyihalash jarayoniga joriy etish uchun topshirilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 5 iyuldagi №01/01-2455 son ma'lumotnomasi). Natijada g'ozapoyalarni maydalashga mo'ljallangan maydalagichni ishlab chiqarish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Kengashida, 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi buyicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk markazining 1 ta ixtiroga patenti olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 154 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amalyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Masalaning qo'yilishi va tadqiqot vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida dalani chigit ekishga tayyorlash texnologiyasi haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, bu erda shudgorlashdan oldin g'ozapoyalarni maydalashning ahamiyati ko'rsatilgan. G'ozapoyalarni maydalash va ularni to'proqqa aralashtirish tuproq unumdorligini oshiradi. Malumki bir tonna maydalangan g'ozapoyaning tuproqdagi samaradorligi 15-20 kg azotning samaradorligiga teng. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, g'ozapoyalarni maydalab sochish tuproq unumdorligini oshiradi.

Dissertatsiyaning **“G'ozapoyalarning fizik-mexanik xossalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida S-4727 g'oz navining fizik-mexanik xossalari keltirilgan. O'zbekistonda turli xil navli g'ozapoyalarning morfologiyasi, fizik va mexanik xossalari M.Muxammadjonov, B.M.Xudayarov, E.Ya.Yasheva, F.A.Skryabin, F.M.Mamatov, S.N.Rijov, M.S.Ganiev, N.A.Qulametov, V.Yu.Yo'ldoshev, N.Mavlonov, B.M.Imindjanov, D.A.Sabenin va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Qoraqalpog'istonda har yili taxminan 80-90 ming gektar erga paxta ekiladi, ushbu maydonning 60-70 % ini S-4727 navi egallagan. Shu bois, ush bu navning fizik-mexanik xossalari o'rganib chiqildi (1-5 jadvallar).

1-jadval

### **G'ozaning asosiy poyasining balandligi bo'yicha har bir 10 cm uzunlikdagi bo'laklarda diametrining o'zgarishi**

Ko'rsatkichlar	Poya balandligi, cm									
	0-10	10-20	20-30	30-40	40-50	50-60	60-70	70-80	80-90	90-100
Kesma diametrining o'lchami, mm	16,2	14,5	12,7	10,4	8,3	6,8	4,6	2,9	2,7	2,6

**G'ozaning asosiy poyasining balandligi bo'yicha har bir 10 cm uzunligidagi bo'laklarda namlikning o'zgarishi.**

Ko'rsatkichlar	G'ozapoyaning balandligi, cm									
	0-10	10-20	20-30	30-40	40-50	50-60	60-70	70-80	80-90	90-100
Namlik, %	67,3	66,2	63,7	54,3	48,2	41,6	29,2	17,4	15,2	12,2

**G'ozapoyaning massasi.** G'ozapoya massasini o'lchash tabiiy namlik sharoitida *Kanot-S* markali elektron tarozi yordamida amalga oshirildi. Tanlangan barcha g'ozapoya tuplari o'lchangach, bir tup g'ozapoya massasining o'rtacha qiymati 141 g ekanligi aniqlandi.

**Asosiy poyaning balandlik bo'yicha 10 cm uzunlikdagi har bir bo'lak massasining o'rtacha qiymati**

Ko'rsatkichlar	Asosiy poya balandligi, cm									
	0-10	10-20	20-30	30-40	40-50	50-60	60-70	70-80	80-90	90-100
Massa, g.	6,79	5,96	5,24	3,89	3,22	2,43	1,82	0,97	0,61	0,57

**G'ozapoyaning zichligi.** Bo'laklarning zichligini aniqlash uchun ularning diametrlari elektron shtangentsirkul yordamida o'lchandi.

**Asosiy poyaning balandlik bo'yicha har bir 10 cm uzunlikdagi bo'laklarning o'rtacha hajmi**

Ko'rsatkichlar	Asosiy poya balandligi, cm									
	0-10	10-20	20-30	30-40	40-50	50-60	60-70	70-80	80-90	90-100
Hajm, sm <sup>3</sup>	9,32	8,46	8,02	7,21	6,44	5,78	4,69	3,47	2,39	2,33


**Asosiy poyaning balandlik bo'yicha har bir 10 sm uzunlikdagi bo'laklarning zichligi**

Ko'rsatkichlar	Asosiy poya balandligi, sm									
	0-10	10-20	20-30	30-40	40-50	50-60	60-70	70-80	80-90	90-100
Zichlik, g/sm <sup>3</sup>	0,73	0,70	0,65	0,53	0,50	0,42	0,36	0,27	0,25	0,24

G'ozapoyalarning zichligini o'rganish maydalagichning ishchi organlari parametrlarini ratsional turda asoslash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning «**G'ozapoya maydalagichning asosiy parametrlari va ishlash rejimlarini nazariy asoslash**» deb nomlangan uchinchi bobida takomillashtirilgan g'ozapoya maydalagich ishchi qismlarining asosiy parametrlarini asoslashga doir o'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.


Ma'lum bo'lgan maydalagich konstruksiyalarining kamchiliklarini inobatga olib, takomillashtirilgan g'ozapoya maydalagich ishlab chiqildi (1-rasm).



a - maydalagichning yon tomondan ko'rinishi; b – maydalagichning tepadan ko'rinishi; v – ustki metal qoplama va poyani yo'naltiruchi ʻitlari bilan jihozlangan rama; g – maydalagichning ishchi qismi; I, II va III– bo'lmalar; 1-rama; 2- korpus qoplama; 3-poyani yo'naltiruvchi ʻitlar; 4,5 va 6 – asosiy va ikkita yordamchi reduktorlarni o'rnatish uchun tuynuklar; 7 – osish qurilmasi; 8 va 9 – oldingi tayanch g'ildiraklari; 10 – orqa g'ildirak; 11 – asosiy reduktor; 12 – kardan vali; 13- yulduzcha; 14 va 15 – yordamchi reduktorlar; 16 – oraliq val; 17 va 18 – muftalar; 19, 20 – tayanch podshipniklari; 21– yulduzcha; 22 – zanjirli uzatma; 23, 24 – vertikal yuritma vallari; 25, 26 – flanets; 27, 28 – o'roq va Γ simon shaklda yasalgan pichoq; 29 – elkalar; 30 –g'ozapoya.

**1-rasm. Takomillashtirilgan g'ozapoya maydalagichning konstruktiv sxemasi**

**G'ozapoya maydalagichning ish jarayonini nazariy o'rganish.** Maydalagich ishchi qismining ish jarayoni ikki bosqichni o'z ichiga oladi: poyani qirqish va uni mayda bo'laklarga bo'lish



1-o'roq shaklidagi pichoq; 2-elka; 3-flanets; 4-«Γ» shakldagi pichoq; 5-vertikal aylanish vali; 6-maydalagich ramasining oldingi balkasi

**2-rasm. G'ozapoya maydalagich ishchi qismning ish jarayoni sxemasi**


Pichoqlarning (o‘roq shaklidagi va «Γ» simon tarzda yasalgan) harakatlanish traektoriyasining tenglamalari va shakli bir xil. Shu sababli harakatlanish tenglamalarini tuzish uchun o‘roq shaklida yasalgan pichoqning chekka (A) nuqtasi harakatini ko‘rib chiqamiz.

Poyani kesish tezligi cho‘zinchoq tsikloida (troxoida) shaklida bo‘lgan o‘roq shaklida yasalgan pichoqning harakatlanish traektoriyasi bilan tavsiflanadi (3-rasm). Shunga muvofiq uning istalgan nuqtasining koordinatalari quyidagi tenglamalar bilan ifodalanadi:

$$X_A = V_a t + R \sin \varphi; \quad (1)$$

$$Y_A = -R \cos \varphi, \quad (2)$$

bunda  $R$  – ishchi qismning aylanishi paytida o‘roq shaklidagi pichoq harakati orqali yuzaga kelgan aylana radiusi;  $\varphi = \omega t$  – o‘roq shaklidagi pichoqning ilk holatidan burilish burchagi;  $\omega$  – ishchi qismning burchak tezligi;  $t$  – o‘roq shaklidagi pichoqning  $\varphi$  burchagiga burilish vaqti;  $V_a$  – agregatning harakat tezligi.



**3-rasm. O‘roq shaklidagi pichoq chekka nuqtasining xarakat traektoriyasi**

Kesish tezligi o‘roq shaklidagi pichoqning tashqi A nuqtasining absolyut tezligiga teng:

$$V_k = \sqrt{V_x^2 + V_y^2}, \quad (3)$$

bunda  $V_x$  va  $V_y$  – qaralayotgan nuqtaning koordinata o‘qlaridagi tezliklari proektsiyalari bo‘lib, ular yuqorida keltirilgan (1) va (2) tenglamalarni vaqt bo‘yicha differentsiyallash orqali aniqlanadi:

$$V_x = \frac{dx}{dt} = R\omega \cos \omega t + V_a = V_p \sin \omega t + V_a; \quad (4)$$

$$V_y = \frac{dy}{dt} = R\omega \sin \omega t = V_p \cos \omega t, \quad (5)$$

bunda  $V_r = R\omega$  – o‘roq shaklida yasalgan pichoqqa ega ishchi qismning aylanma tezligi.

$V_x$  va  $V_y$  larni (3) tenglamaga kiritgach qo‘yidagiga ega bo‘lamiz:

$$V_k = \sqrt{V_a^2 + 2V_a V_p \sin \varphi + V_p^2}. \quad (6)$$

Bu tenglama shuni ko‘rsatadiki, kesish tezligi o‘zgaruvchan qiymatga ega bo‘lib, o‘roq shaklida yasalgan pichoqning burilish burchagiga bog‘liq tarzda o‘zgaradi.

Bitta tekislikda aylanadigan pichoqlar bilan kesilgan poyalarning uzunligi ularning traektoriyasining nisbiy siljishiga teng:

$$l_{kp} = V_a t_z, \quad (7)$$

bunda  $t_z = \frac{\varphi_z}{\omega}$  – pichoqning yonma-yon joylashgan pichoqlar orasidagi burchakka teng burchakka burilish vaqti.

Maydalovchi ishchi qismning diametri quyidagi formula bilan aniqlanadi

$$D_p = \frac{l_k z (V_p + V_a)}{\pi V_a} \quad (8)$$

Maydalovchi ishchi qism valining aylanish chastotasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$n_p = \frac{60(V_p + V_a)}{\pi D_p}. \quad (9)$$

Shunday qilib, biz ega bo‘lgan (7), (8) va (9) tenglamalar poya maydalagich ishchi qismning asosiy konstruktiv va kinematik parametrlarini aniqlash imkonini beradi.

Kesish tezligi formulasi (6) bo‘yicha aniqlanadi, ya’ni,

$$V_k = \sqrt{V_a^2 + 2V_a V_p \sin \varphi + V_p^2},$$

bunda  $V_a=1,91\text{ m/s}$  – agregatning ishchi tezligi;

$V_p=R\omega$  - o‘roq shaklidagi pichoq o‘rnatilgan ishchi qismning aylanma tezligi;

$R$  – ishchi qismning aylanish radiusi, m;

$\varphi=30^\circ$  – o‘roq shaklida yasalgan pichoqning kesish jarayonining boshidan oxirigacha aylanish burchagi,  $^\circ$ .

Ishchi qismning aylanma tezligi quyidagicha


$$V_p = R\omega = 0,35 \cdot 1620 = 567\text{ m/min} = 9,45\text{ m/s}.$$

Kesish tezligi esa

$$V_k = \sqrt{V_a^2 + 2V_a V_p \sin \varphi + V_p^2} = \sqrt{1,91^2 + 2 \cdot 1,91 \cdot 9,45 \cdot 0,5 + 9,45^2} = 10,5\text{ m/s}.$$

**G‘o‘zapoyalarni maydalash jarayoni.** O‘roq shaklida yasalgan pichoq asosiy g‘o‘zapoyani qirqib, uni maydalagich pichog‘ining harakat zonasiga o‘tkazadi. Shu bilan birga, g‘o‘zapoyalar gorizont tekislikka yaqinroq pozitsiyalarni egallaydi. Shuning uchun, asosiy pichoq - maydalagich ikkala tekislikda kesish uchun gorizont va vertikal qirralarga ega bo‘lishi kerak. Mana shu jihatlarni hisobga olgan holda asosiy pichoq - maydalagich “Г” simon shaklda qilingan. Bu pichoq vertikal o‘qda gorizont ravishda aylanadigan flanetsga uchi yuqoriga qaratib o‘rnatiladi (1,g-rasm).

G‘o‘zapoyalarni maydalash jarayonini aniq ko‘rsatish uchun g‘o‘zapoyani tsilindr shaklidagi mo‘rt material sifatida qabul qilamiz (4-rasm).




$a$ -elastik deformatsiya qiymati, m;  
 $D$ -tebranish tarqaladigan kuchlanish qismi diametri, m.

**4-rasm. G‘o‘zapoyaning ko‘ndalang kesimidagi elastik deformatsiya sxemasi**

Poyalarni maydalash ularga maydalagich pichog‘i bilan takroriy zarbalar berish natijasida sodir bo‘ladi. Pichoq tig‘i ta’siri ostida poyalarning qismlarga bo‘linishidan oldin uning chetida zaiflashtiruvchi kuchlanish paydo bo‘lguncha poyani oldindan siqish jarayoni amalga oshiriladi (4-rasm).

Material (g‘o‘zapoya) yanada zaiflashishi uchun zarba elastik deformatsiya uchun maksimal tezlikdan oshadigan, ushbu materialdagi tebranish tarqalish tezligiga teng bo‘lgan tezlikda amalga oshirilishi kerak.

Zaiflashtiruvchi kontakt kuchlanish  $\sigma_p$  paydo bo‘lish vaqti material uchun  $P_{kr}$  qiymati bilan belgilanadi (5-rasm). Buning uchun materialda ichki kuchlarning paydo bo‘lishini tahlil qilamiz.



1-maydalagich pichog‘i; 2-g‘o‘zapoya;

**5-rasm. Maydalagich pichog‘i bilan poyaning o‘zaro ta’sirlashishi**

Shunday qilib, pichoq tig‘ining charxlangan qirrasiga normal yo‘nalishda  $P_{siq}$  va  $P_{yon}$  proektsiyalarining yig‘indisi hisoblangan kuch  $N$  ta’sir qiladi:

$$N = P_{siq} \cdot \sin \beta + P_{yon} \cdot \cos \beta. \quad (10)$$

Normal kuch ( $N$ ) ta’sirida pichoq tig‘ining charxlangan qirrasida ishqalanish kuchi paydo bo‘ladi:

$$F = f \cdot N, \quad (11)$$

bunda  $f = tg \varphi$  -materialning pichoq qirrasiga ishqalanish koeffitsienti;

$\varphi$  - ishqalanish burchagi,  $^{\circ}$ .

Materialni zaiflashtirish boshlanganda, materialga tushadigan kritik kuch  $P_{kr}$  vertikal yo‘nalishda harakat qiladigan hamma kuchlar yig‘indisini engib o‘tishi kerak:

$$P_{kr} = P_{kes} + 2(P_{siq} + F^1). \quad (12)$$

$P_{kes}$  kuchini pichoq qirrasiga yuzasi  $S$  ni zaiflashtiruvchi kontakt kuchlanishga  $\sigma_p$  ko‘paytirish orqali aniqlash mumkin:

$$P_{kes} = S \sigma_p = \delta \cdot l_{tig} \cdot \sigma_p, \quad (13)$$

bunda  $\delta$  - pichoq tig‘ining qalinligi, m;

$l_{tig'}$  - pichoq tig'ining uzunligi, m.

Ma'lumki, zaiflashtiruvchi kontakt kuchlanish:

$$\sigma_p = \frac{Ea}{D}, \quad (14)$$

bunda  $E$  - g'ozapoyaning elastikli moduli;  $Pa$ ;

$a$  - elastik deformatsiya qiymati, m, (4-rasm, poya shartli ravishda tsilindr shaklida olingan);

$D$  – tebranish tarqalgan kuchlanish qismi diametri, m.

G'ozapoyani mo'rt material sifatida qabul qilamiz, u holda zaiflashtiruvchi kuchlanish materialning maksimal mustahkamlik darajasidan katta yoki unga teng bo'ladi.

$$\sigma_p \geq \sigma_{mus.cheg.} \quad (15)$$

Yuqorida keltirilgan formulalarni taqqoslab, zarbaning zaiflashtiruvchi tezligini aniqlaymiz:

$$V_{chop} = \sigma_p \sqrt{\frac{E}{\rho}} / E. \quad (16)$$

Shunday qilib, material zaiflashishi uchun zarba elastik deformatsiya uchun tezlikdan oshib ketadigan tezlikda amalga oshirilishi lozim.

(17) formula bo'yicha zaiflashtiruvchi kontakt kuchlanish qiymati quyidagicha bo'ladi:

$$\sigma_p = \frac{V_{chop} \cdot E}{\sqrt{E / \rho}} \quad (17)$$

Zaiflashtiruvchi tezlikni  $V_{chop}$  ishchi qismning aylanish chastotasi orqali aniqlash mumkin.

$$V_{chop} = \pi R \cdot n / 30, \quad (18)$$

bunda  $R=0.35$  m – maydalovchi ishchi qismning aylanish radiusi;

$n=1620$  r/min – maydalovchi ishchi qismning aylanish chastotasi.

Demak,  $V_{chop} = 3,14 \cdot 0,35 \cdot 1620 / 30 = 59,346$  m / min = 1,0 m / s .

$V_{chop}$  ning bu qiymatini (18) formulaga qo'yib, zaiflashtiruvchi kontakt kuchlanish qiymatiga ega bo'lamiz:

$$\sigma_p = \frac{V_{chop} \cdot E}{\sqrt{E / \rho}} = \frac{1 \cdot 5,2 \cdot 10^9}{2669} = 1,95 \cdot 10^6 \text{ Pa}$$

(15) tenglamaga ko'ra quyidagiga ega bo'lamiz:


$$\sigma_p = \sigma_{mus.cheg.} = 1,95 \cdot 10^6 \text{ Pa}.$$

Dissertatsiyaning dagi turtinchi «**Eksperimental tadqiqotlar metodikasi va natijalari**» deb nomlangan bobida eksperimental tadqiqotlarning dasturi va metodlari hamda ularning natijalari keltirilgan. Har xil shakldagi pichoqlardan

iborat ishchi qism yordamida g'ozapoyalarni maydalashning sifati va to'liqligini aniqlash maqsadida eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi (6-11- rasmlar).




**6-rasm. To'g'ri tig'li pichoqlardan iborat ishchi qismning tajriba nusxasi**




**7-rasm. To'g'ri tig'li pichoqlardan iborat ishchi qism bilan g'ozapoyalarni maydalash darajasining agregat harakat tezligiga bog'liqlik grafigi**




**8-rasm. Sferik tig'li o'roq shaklida yasalgan pichoqlar va to'g'ri tig'li pichoqlardan iborat bo'lgan ishchi qismning tajriba nusxasi**



**9-rasm. O'roq shaklidagi pichoq va to'g'ri tig'li pichoqlardan iborat ishchi qism yordamida g'ozapoyalarni maydalanish darajasining agregatning harakat tezligiga bog'liqlik grafigi**



**10-rasm. O'roq shaklidagi va «Г» simon ko'rinishidagi pichoqlardan iborat ishchi qismning tajriba nusxasi**




**11-rasm. O'roq shaklidagi pichoqlar va «Г» shaklda yasalgan pichoqlardan iborat ishchi qism yordamida g'ozapoyalarni maydalanish darajasining agregat harakat tezligiga bog'liqlik grafigi**

Grafikdan ko'rinib turibdiki, to'g'ri burchakli tig'li pichoqlarni o'roq shaklidagi pichoqlar bilan birgalikda ishlatish g'ozapoyalarni maydalash

to'liqligini sezilarli darajada oshirdi. Traktorning ikkinchi uzatmasida (1,12 m/s) poyalarning maydalanish to'liqligi 93,3%, uchinchi uzatmada - 89,7%, to'rtinchi uzatmada esa 84,4% ni tashkil etdi.


G'ozapoyalarni maydalashda to'g'ri burchakli tig'li pichoqlardan foydalanish samaradorligini hisobga olgan holda, to'g'ri burchak hosil qiluvchi tig' qismining turli uzunliklari bilan tadqiqotlar o'tkazildi. Ushbu qism uzunligi qiymatini 8; 10; 12 sm deb qabul qilamiz (12-rasm).



1-to'g'ri burchak hosil qiluvchi tig' qismi uzunligi 8 sm;  
2-10 sm; 3-12 sm;

**12-rasm. To'g'ri burchakli tig'li eksperimental pichoqlar**

Tadqiqot natijalari 13-rasmda grafik shaklida ko'rsatilgan.



**13-rasm. G'ozapoyalar maydalanish to'liqligining to'g'ri burchak hosil qiluvchi tig' qismi uzunligiga (1-8 cm; 2-10 cm; 3-12 cm) va agregatning harakat tezligiga bog'liqligi grafigi**

Grafikdan ko'rinib turganidek, to'g'ri burchak hosil qiluvchi tig' qismining uzunligi 12 cm ga teng bo'lganda, traktorning II va III uzatmalaridagi tezligida poyalarning maydalanish to'liqligi agrotexnik talablardan oshadi, ya'ni, 95,6 va 97,8 ni tashkil qiladi. Shunday qilib, g'ozapoyalarning sifatli va to'liq maydalanishiga erishish uchun ikki juft o'roq shaklida va «Г» simon shaklda yasalgan pichoqlardan iborat ishchi qismdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, to'g'ri burchak hosil qiluvchi tig' qismining uzunligi 10-12 cm bo'lishi kerak.

Parametrlarning maqbul qiymatlari va ish rejimlari ko'p omilli **eksperimentlarni matematik rejalashtirish** yordamida aniqlandi. Tadqiqot davomida burovchi moment va g'ozapoyalarni maydalash darajasiga ta'sir etuvchi omillar sifatida «Г» simon shaklda yasalgan pichoqning balandligi, pichoqlarning aylanish chastotasi va agregatning harakat tezligi tanlandi.

Eksperiment natijalarini qayta ishlagandan keyin baholash mezonlarini adekvat ifodalovchi regressiya tenglamalari olindi:

-g'ozapoyani maydalanish darajasi bo'yicha (%):

$$Y_1 = 94,943 + 1,517X_1 + 1,153X_2 - 2,79X_3 - 1,587X_1^2 + 1,95X_1X_2 + 1,21X_1X_3 - 1,673X_2^2 - 2,95X_2X_3 - 1,507X_3^2 \quad (19)$$

- kardanli valdagi burovchi momenti bo'yicha (Nm):

$$Y_2 = 107,683 + 4,778X_1 + 3,617X_2 + 5,6X_3 - 1,745X_1^2 - 3,533X_1X_2 + 3,45X_1X_3 + 1,638X_2^2 + 2,522X_3^2 \quad (20)$$

Talablarga muvofiq ish sifatini ta'minlovchi parametrlar qiymatlarini aniqlash uchun regressiya tenglamalari (19 va 20) Excel dasturidan foydalangan holda Pentium kompyuterida (echim qidirish usuli yordamida) birgalikda echildi. Regressiya tenglamasining birgalikdagi echimida  $Y_1$  mezon, ya'ni g'ozapoyalarning maydalanish darajasi 95% dan kam bo'lmashligi,  $Y_2$  mezon, ya'ni burovchi moment minimal bo'lishi kerak deb belgilandi.

Ushbu shartlarni bajarish uchun agregat tezligi 1,12 – 1,91 m/s bo'lganda «Г» simon shaklda yasalgan pichoq tik qismining balandligi 110,4-112,7 mm, va ishchi qismning aylanish soni 1827,3 -1953,2 r/min bo'lishi lozim. Omillarning ushbu qiymatlarida burovchi moment 105,74-111,48 Nm, g'ozapoyalarni maydalanish darajasi 95,68-97,8% oralig'ida buldi.

Dissertatsiyaning «**G'ozapoya maydalagichning xo'jalik sinovlari natijalari va iqtisodiy samaradorligi**» deb nomlangan beshinchi bobida takomillashtirilgan g'ozapoya maydalagich tajriba nusxasining qisqacha texnik tavsifi, xo'jalik sinovlarining natijalar hamda texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

Sinovlarda takomillashtirilgan g'ozapoya maydalagichning tajriba nusxasi belgilangan texnologik jarayonni ishonchli bajardi va uning ish ko'rsatkichlari unga qo'yiladigan talablarga to'liq mos keldi.

Takomillashtirilgan g'ozapoya maydalagich qo'llanilganda mehnat sarfi 8,9 foizga va to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar 30 foizga kamaydi va buning evaziga bitta agregatdan 23225305,77 so'm yillik iqtisodiy samara olindi.

## Xulosa

1. G'ozapoyadan organik o'g'it sifatida foydalanish tuproq unumdorligini oshiradi, uning zichligini pasaytiradi va namlikni saqlash xususiyatlarini yaxshilaydi. Demak, g'ozapoyalarni maydalab bo'laklash tuproqning ushbu sifatlarini oshiradi.

2. Har xil shakl va kombinatsiyali pichoqlardan, ya'ni sferik tig'li o'roq shaklida va «Г» simon shaklda yasalgan pichoqlardan iborat g'ozapoya maydalagichning ishchi qismidan foydalanish samaradorligi asoslangan. «Г» simon shaklda yasalgan pichoqning to'g'ri burchak hosil qiluvchi tig' qismining balandligi 11-12 cm oralig'ida bo'lishi kerak.

3. Pichoqlarning, ya'ni ishchi qismning aylanish chastotasi 1827,3 -1953,2 r/min oralig'ida bo'lishi kerak.

4. G'ozapoyalarning sifatli va to'liq maydalanishi ta'minlanishi uchun agregat harakati 1,12 va 1,91 m/s tezliklarga mos ravishda traktorning II va III uzatmalarida amalga oshirilishi lozim, bunda valdagi burovchi moment 105,74-111,48 Nm ni, g'ozapoyalarning maydalanish darajasi 95,68-97,8 % ni tashkil etadi.

5. Paxta yig'im-terimidan keyin g'ozapoyalarni maydalab dalaga sochish uchun takomillashgan g'ozapoya maydalagichdan foydalanganda mehnat sarfi 8,9 foizga va to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar 30 foizga kamayadi va buning evaziga bitta maydalagichdan 23225305,77 so'm yillik iqtisodiy samara olinadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/13.05.2020.Т.112.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ  
ИНСТИТУТЕ МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

---

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ИНСТИТУТ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И  
АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

**БАЛТАНИЯЗОВ АДИБАЙ САРСЕНБАЕВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИЗМЕЛЬЧИТЕЛЯ СТЕБЛЕЙ  
ХЛОПЧАТНИКА И ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ ЕГО  
ОСНОВНЫХ РАБОЧИХ ОРГАНОВ**

**05.07.01 - Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация  
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Гульбахор - 2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за В2023.3.PhD/Т418.**

Диссертация выполнена в Каракалпакском институте сельского хозяйства и агротехнологий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу: [www.qxmiti.uz](http://www.qxmiti.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научной руководитель:** **Ауезов Онгарбай Пирлешович**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Худаяров Бердирасул Мирзаевич**  
доктор технических наук, профессор

**Норчаев Даврон Рустамович**  
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Центр сертификации и испытаний  
сельскохозяйственной техники и технологий**

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 г. в \_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.05/13.05.2020.T.112.01 при Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства (Адрес: 110801, Ташкентская область, Янгиюльский район, пос. Гульбахор, ул. Самаркандская, 41. Тел.: (+99870) 601-07-04, факс: (+99870) 601-07-04, e-mail: [qabulxona@uzmei.uz](mailto:qabulxona@uzmei.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института механизации сельского хозяйства (регистрационный номер\_\_\_). Адрес: 110801, Ташкентская область, Янгиюльский район, пос. Гульбахор, ул. Самаркандская, 41. Тел.: (+99870) 601-07-04, факс: (+99870) 601-07-04, e-mail: [qabulxona@uzmei.uz](mailto:qabulxona@uzmei.uz).

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(Протокол рассылки №\_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года).

**А.Тухтакузиев**

Заместитель председателя научного совета  
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

**А.А.Ибрагимов**

Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.т.н., с.н.с.

**А.Тухтакузиев**

Председатель научного семинара при научном совете  
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

## **Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире хлопчатник является одним из ценнейших сельскохозяйственных растений. Его продукты используются почти во всех отраслях народного хозяйства. Если учесть, что на сегодняшний день в мире на площади около 900 млн. гектаров возделываются различные сельскохозяйственные культуры, в том числе на 32-33 млн. гектаров площади выращивается хлопчатник, то важной задачей является разработка энергосберегающих технологий и техники с высоким качеством работы не только для выращивания хлопчатника, но и для очистки полей от стеблей хлопчатника. В связи с этим уделяется внимание разработке технических средств, повышающих ресурсосбережение при измельчении стеблей хлопчатника.

С целью использования стеблей хлопчатника в качестве органического удобрения в мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на разработку ресурсосберегающих технологий и технических средств для измельчения стеблей хлопчатника. В этом направлении имеет важную роль создание машины для срезания, измельчения и разбрасывания по полю стеблей хлопчатника и обоснование ее технологического процесса работы. В связи с этим необходимо создавать машины с компактными и удобными рабочими органами для измельчения стеблей хлопчатника.

